

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

ILMIY JURNALLARDA MAQOLAGA QO‘YILADIGAN TALABLAR HAQIDA BA‘ZI MULOHAZALAR

Tojiboyeva Mushtariy Rustam qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tadqiqotchiga ilmiy tadqiq ishi (maqola)ni shakllantirishda uning strukturasi haqida batafsil ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: sarlavha, annotatsiya, ilovalar, adabiyotlar, fan asoslari, faktik materillar, metodologiya.

Har bir talaba, albatta, fan asoslarini egallash, bilim va axborotni o‘zlashtirish bilan birga o‘zlari ham ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanib borishlari kerak. Zero, bo‘lajak mutaxassis har bir fanni o‘zlashtirgan va undagi muommolarni yechish bilan shug‘ullanadigan raqobatbardosh kadr bo‘lib yetilmog‘i lozimdir. Chunki, oliygohlarda ta’lim olayotgan talaba kelajakda o‘z kasbining mutaxassisi bo‘lishi bilan birgalikda ilmiy tadqiqot bilan ham shug‘ullanishi uchun salohiyatga ega bo‘lishi darkor. Har bir talaba 1-kursga kirgandan boshlab ilmiy anjumanlarda, ilmiy seminarlarda ishtirok etishi kerak, fanning ma’lum bir sohalari bo‘yicha muommolarni aniqlab, bu muommolarning yechimiga doir o‘z fikr va mulohazalarini bayon etishga, mustaqil holda ilmiy tadqiqot olib borishga, ijodiy izlanishga va ijod mahsulini ommaga taqdim etishga tayyorlanib borishi ham kerak bo‘ladi. Ana shunday ilmiy tadqiq jarayonida o‘zining ilmiy ishi (maqola)si bilan ishtirok etadi. Bugungi yoshlar “Ilmiy maqola qanday yoziladi?”, “Ilmiy maqolani qanday shakllantiraman?” degan talabalarga quyida ko‘rsatmalar berib o‘tiladi.

Ilmiy tadqiqot (maqola) strukturasi:

1. Sarlavha
2. Annotatsiya
3. Kalit so‘zlar
4. Kirish
5. Asosiy qism
6. Xulosa
7. Adabiyotlar
8. Ilovalar

Kirish qismida muommo qo‘yilishi kerak. Xulosada shu muommoning yechimi keltiriladi. Ana shu kirish va xulosadagi fikrlar “siqib”, “ixchamlashtirilib” annotatsiyada berilishi mumkin. Annotatsiya kirish va xulosa bilan mazmunan bir xil bo‘ladi va ixchamligi jihatdan ulardan ajralib turadi. Annotatsiyani o‘qigan kishi siz qanday muommoni qo‘yayapsiz va siz uni qanday yechyapsiz. Ana shuni bilib olishi kerak. Nobel mukofotining laureati Lev Dagledovich Vandau “Men ilmiy maqolalarning kirish va xulosa qismini o‘qiymen. Negaki, u muommoni qanday qo‘yayotir va qanday yechimga keldi. Bu narsa men uchun muhim. Uni qanday yechganligi haqidagi asosiy qism men uchun shart emas. Chunki qanday yechishni men o‘zim tadqiqotchilardan yaxshiroq bilaman”, - degan ekan. Demak, u tadqiqotga muommoning qo‘yilishi va yechimi nuqtayi nazaridan baho beradi, yechilish jarayoni esa ko‘pchilik uchun unchalik ahamiyatli bo‘lmaydi. Shuning uchun kirish va xulosada kiritilgan fikrlarni

ixchamlashtirib, annotatsiyada berish katta mahoratni talab qiladi va sizning ilmiy tadqiqotiningiz mohiyatini o'zida aks ettiradi. Shuningdek, sizga baho ana shu annotatsiya orqali beriladi. Bugungi kunda axborot oqimi juda ko'payib ketgan bir sharoitda kishilar har bir maqolani boshidan oxirigacha o'qib o'tirishga vaqt topisholmaydi. Agar annotatsiya bilan tanishib, o'ziga kerakli fikr bu yerda bayon etilganligini anglab yetsa, uni batafsil o'qishga kirishishi mumkin. Ana shuning uchun annotatsiya ilmiy tadqiqotda katta ahamiyatga ega. Buning hech qanday yomon joyi yo'q. Siz kirish va xulosani ixchamlashtirib, uning qaymog'ini annotatsiyaga olib chiqishingiz kerak. Shu nuqtayi nazardan maqolalar bilan tanishib chiqsangiz ulardagi annotatsiya, kirish va xulosa qay tarzda berilganligiga amin bo'lasiz.

Ilmiy tadqiqotning zaruriy bosqichlari va tarkibiy qismlari:

- Fan asoslari;
- Fan tadqiq metodlari;
- Ilmiy tadqiq metodologiyasi;
- Tadqiq manbai, predmeti va materialini belgilash va asoslash;
- Masalaning o'rganilish tarixi bilan tanishish;
- Ilk faktik material yig'ish;
- Tadqiqot mavzusini, dolzarbligini, maqsad va vazifalari, tajriba-sinov asoslarini belgilash va rasmiylashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni atroflicha o'rganish;
- Faktik material yig'ish, tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish;
- Faktik materialni sistemalashtirish ;
- Ilmiy tadqiqotni yozish;
- Qo'shimcha faktik material yig'ish;
- Ishni tahrirlash, ilk ekspertizadan o'tkazish;
- Muhokamaga chiqarish;

Ilmiy tadqiq yaratishda muommo anglanishi va uning yechimi ishlab chiqilishi kerak. Ana shundan keyin tadqiqotni yozishga kirishilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Peregulov L.V., Saidov M.X., Aliqulov D.E. Ilmiy ijod metodologiyasi. – Toshkent: “Moliya” nashriyoti, 2002.
2. Yusufbekov.N.R., Muhamedov B.E., G'ulomov Sh.M. Texnologik jarayonlarni boshqarish sistemalari. – Toshkent: “O'qituvchi” nashriyoti, 1997.
3. Asilova G.A. Ilmiy Tadqiqot faoliyati asoslari. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent. 2020.
4. <http://www.vak.uzsci.net>
5. <http://dissertatsija.com/>